

This is not registered version of TotalDocConverter  
Mehis qayd qiling osh qishloq bolam.

Qishloq markazidagi gulzorda mangu olov yonib turibdi. Gulxan yonida urushda halok bo'lgan qishloq mardi-maydonlarining xotirasiga marmardan yodgorlik tiklangan.

Soqoli ko'ksiga tushgan, yoshi yetmishlarga borgan bir mo'ysafid olti-etti yashar nevarasini yetaklab, yodgorlik yoniga keldi. Boboning ham, nevaraning ham qo'lida anvoyi gullar. Ular gullarni yodgorlik poyiga qo'yib, ancha vaqt ko'zlarini gulxandan uzymay, sukul saqlab turdilar. Men ham ular yonida turdim.

Tog' shamoli gulxan cho'g'ini o'ynardi. Qariya boshini gulxandan ko'tardi. Men bilan ko'rishib, hol-ahvol surab, maydon yonidagi buloq bo'yida savlat to'kib turgan azim chinor tagidagi so'rige boshladi.

Dasturxon yozildi. Nevara choy keltirdi. Otaning suhbatga mushtoq ekanligini sezdim. Choy asnosida dardu dilimiz ochilib ketdi. Ota qirq yoshida g'alaba bilan uyiga qaytib kelganligini aytdi. Frontda zenitchi bo'lib, fashist kaxatlarini qiyratgan ekan.

Yodgorlikka gul qo'yilgan kun otaning ham, nevarasining ham tug'ilgan kuni ekan. Ota o'z tengqurlaridan ko'p kishi ikkinchi jahon urushida halok bo'lganligini aytdi. So'ng bunday dedi:

- Qani endi ular hayot bo'lganlarida mana shu sizu biz soyasida dam olib o'tirgan chinor tagida osh qilib, yetmish yilligimni nishonlayotgan bo'lar edik.

- Boshqa tengqurlaringiz ham bordir, sovxozi ulug' yoshingizni esga olgandir, - dedim.

Ota menga xursand qaradi:

- Ulug' yoshimni yaxshi nishonladilar. Rahmat ularga! Ammo tengqurlarim bo'lganda yanada boshqacharoq bo'lardi. Bir ko'rpara katta bo'lgan ko'pgina do'stlarimdan ayrilganman. Ular xotirasiga shu yodgorlik tiklanib, gulxan yonib turibdi. Shuning uchun har kuni bu yerga bir marta ta'zimga kelaman.

1976